

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53407-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**BANK MENEJMENTI VA
MARKETINGI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340700 - "Bank ishi"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchi: prof. Abdullaeva Sh. Z.

Taqrizchilar: prof. Qoraliev T.,
k.o'q. Ravshanov X. N.

"Bank menejmenti va marketingi" fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, bugungi kunda bu fan bo'yicha bozor munosabatlari sharoitida banklar faoliyatini mikro va makro darajada boshqarish, banklar o'rtasida raqobat kurashining shakllanishi, bank mahsulotlari va xizmatlarini realizatsiya qilish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish, bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish, tijorat bankining mijozlari bozori, bank xizmatlarini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatida marketing va nazorat hamda reklama faoliyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib hisoblanadi.

"Банковский менеджмент и маркетинг", являясь одним из профилирующих предметов, на сегодняшний день в условиях рыночной экономики помогает управлять банковской деятельностью на микро и макроуровнях, формировать конкурентную среду между банками, реализовывать банковские продукты и услуги, изучать рынки банковских продуктов и услуг, развивать банковские услуги и рынки банковских клиентов. Кроме того в предмете изучаются вопросы организации рекламной деятельности в банковской сфере.

"Banking management and marketing" is one of the main special subjects. These days in conditions of market economy it helps to manage the banking activity at micro and macro levels, to form the competitive fight between banks, to realize banking products and services, to study markets of banking products and services, to develop banking services and markets of banking customers, and in addition to this items this subject is the one which studies the marketing and auditing and advertizing activity in banking sphere.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Bank menejmenti va marketingi" fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan davlat ta'lim standartiga banoan bank menejmenti va marketingi fani o'qitiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank faoliyatida bozor talablariga mos keluvchi xizmat turlarini tadbiq etish, mijozlarning talab va takliflarini inobatga olish, ularga xizmat ko'rsatishning yangi tur va usullarini joriy etish, shuningdek bank tizimi takomillashib borishi ushbu sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

Menejment va marketing bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning aniq, maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyati amalga oshirishning asosidir.

Bank menejmenti banklar faoliyatining yuqori darajadagi boshqaruv tizimini anglatasa, bank marketingi esa banklar faoliyatini tashkil qilish va uni bozordagi o'zgarishlar bilan muvofiqlashtirish demakdir.

Bank menejmenti va marketingi fanning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida banklarni boshqaruvchi yuqori malakali mutaxassislarni etishtirib chiqarishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalar bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

"Bank menejmenti va marketingi" kursida banklar faoliyatini mikro va makro darajada boshqarish, banklar o'rtasida, banklar va boshqa moliya institutlari o'rtasida raqobat kurashining shakllanishi va ular faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolar ko'rib chiqiladi.

Fanni talabalarning chuqur o'zlashtirishiga, ularga beriladigan vazifalarni o'z vaqtida to'la bajarilishi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning muvofiqligi orqali erishiladi. Shulardan kelib chiqqan holda:

- talabalar fanni o'rganish davrida har bir o'tiladigan mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan so'raladigan "tayanch" ibora, test savollariga javob berib, tegishli masalani echa olishi;
- o'qish davrida yozma nazorat ishlarini bajarishi va referatlar tayyorlashi;
- fanni o'zlashtirish natijasida va kelajakda talaba Bank menejmenti va marketingi sohasida bo'ladigan o'zgarishlarni bilishi lozim.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Mazkur kursni o'zlashtirish "Pul, kredit va banklar", "Bank ishi" va "Pul-kredit orqali muvofiqlashtirish", kabi nazariy va amaliy fanlardan olingan chuqur bilimlarga tayanadi. Hozirgi kunda iqtisodchilarning bank va moliya tizimidagi hamda iqtisodiyotdagi boshqa o'zgarishlarni to'la his eta bilish va mustaqil iqtisodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish zarur.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Bank menejmenti va marketingi fanini o'qitishda talabalar kompyuterdan foydalangan holda tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish va boshqarishda qo'llaniladigan xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi hisob-kitoblarni olib borish, mijozlarni kreditlash, shuningdek, bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish bilan bog'liq kompyuter dasturlari bilan tanishadilar hamda fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikasidan foydalaniladilar.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalari

Mazkur fan talabalarni o'qitishning yakunlovchi bosqichi hisoblangan 4-kurs, 7-semestrga mo'ljallangan. Kurs har haftada 4 soat o'qitiladi. Talabalar olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash maqsadida tijorat hamda o'quv banklarida sayyor darslar o'tib mustahkamlaydilar.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur fanga 81 soat hajmida vaqt ajratilgan. Ularning 36 soati ma'ruza, 18 soati amaliy mashg'ulot va 27 soati mustaqil ta'limdir. Dastur "Bank ishi" mutaxassisliklarini tayyorlovchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'llash uchun mo'ljallangan. Olingan chuqur nazariy bilimlarning amaliyotda muvofiqlashuvi bank tizimining rivojlanishi va davlatimizning iqtisodiy yuksalishini ta'minlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

2. FAN DASTURI

Bank menejmenti va marketingining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Bank menejmentining mohiyati va uning boshqa fanlari bilan uzviy bog'liqligi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda kursning maqsadi va vazifalari. *O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyatini boshqarishda menejmentni tashkil qilish va takomillashtirishning xususiyatlari.*

Bank faoliyatida menejmentning zarurati va o'ziga xos xususiyatlari

Banklar faoliyatini boshqarishda menejmentning ob'ektiv zarurati. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi va ikki pog'onali bank tizimi. Banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va menejmentning unga ta'siri. Bank faoliyatidagi tavakkalchilik va mijozlar menejmenti darajasini hisobga olish.

Tijorat banklari faoliyatini boshqarish

O'zbekistonda tijorat banklarining tashkil topishi va ular bajaradigan operatsiyalar. Bank aktivlarini boshqarish, ularning tarkibi va tavakkalchilik. Bank passivlarini boshqarish, ularning tarkibi va depozit siyosati. Bankning moliya bozorida ishtiroki. Bank daromadlari, xarajatlari va foydasi.

Bank xodimlarini boshqarish

Boshqaruvchining rahbarlik uslubi, fazilatlari va madaniyati. Jamoaning yuqori maqsadlar yo'lidagi faoliyati. Maqsadlarni amalga oshirish yo'lida resurslardan to'la va samarali foydalanish (inson, moddiy ne'matlar, ishchi muhit va vaqt). Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar.

Bank marketingining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Bank marketingining mohiyati va zarurati. Bank marketingining asosiy maqsadlari. Bank marketingining asosiy vazifalari, tamoyillari va funktsiyalari. Bank tomonidan qabul qilingan rejalarning asoslanganligini ta'minlash, bank foydasini kengaytirish usullari.

Tijorat banklari faoliyatida marketing va uning o'ziga xos xususiyatlari

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida banklar o'rtasidagi raqobat. Tijorat banklarini marketing strategiyasi orqali boshqarish. Bank marketingini o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda bank marketingining tutgan o'rni.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish

Bank mahsulotlari va ularning turlari. Bank mahsulotlariga talab va uning shakllantirish omillari. Bank xizmatlarining turlari. Bank mahsulotlari bozorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari. Bank xizmatlariga bo'lgan talablarni o'rganish.

Tijorat bankining mijozlari bozori

Bank mijozlarining tarkibi va ularga tavsif. Banklararo raqobat kurashi sharoitida mijozlarni jalb qilish va saqlash muammosi. Pul oqimi va kapitali mavjudligi darajasiga

qarab mijozlarni tasniflash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank mijozlari bozorida o'z mavqeiga ega bo'lish yo'llari va muammolari.

Tijorat bankinging tashkiliy tarkibi, marketing xizmati va nazorati

Bankning tashkiliy tarkibi va tuzilishi. Banklarning tarkibiy qismlari va ularni boshqarishning asosiy yo'nalishlari. *Bank tashkiliy tarkibida marketing xizmati.* Marketing xizmatini nazoratning vazifalari va ularning bosqichlari. Bank faoliyatida nazoratning asosiy yo'nalishlari.

Tijorat banklari xizmatlarini takomillashtirish va reklama

Bozor sharoitida bank xizmatlari turlarini ko'paytirish va ularning mavqeini takomillashtirish zarurati. Bank xizmatlarini olib borish va tashkil qilishda reklama va uning o'rni. Bank faoliyati bilan bog'liq reklama turlari va ularni tashkil qilish usullari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAVZULARI

Bank menejmentining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Bank menejmentining mohiyati va kelib chiqishi*. Bank menejmentining asosiy maqsadi. Bank menejmentining asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatida menejment tamoyillaridan foydalanish zaruriyati. Bank menejmenti yuzaga kelishi va rivojlanishining kontseptual masalalari bo'yicha g'oyalari.

Bank faoliyatida menejmentning zarurligi va boshqarish usullari

Ikki pog'onali bank tizimining faoliyati. Bank faoliyatida menejmentning zarurati*. Bank menejmentining o'ziga xos xususiyatlari. Respublikamiz bank tizimiga menejmentning kirib kelishi va rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini xalqaro bank tizimiga yaqinlashtirishda bank menejmentining ilg'or usullaridan foydalanish imkoniyatlari.

Bank marketingining mohiyati, maqsadi va vazifalari

Bank marketingi, uning mohiyati va kelib chiqishi. Bank marketingining asosiy printsiplari. Bank marketingining asosiy vazifalari*. Hozirgi zamon bank tizimida marketing tadqiqotlarini olib borishning zaruriyati va usullari. O'zbekiston Respublikasida bank marketingini rivojlantirishning istiqbollari.

Bank marketingining o'ziga xos xususiyatlari

Bank faoliyatida marketing xizmatini olib borishda bozorni o'rganish. Bank marketingining maqsadi, printsiplari*. Bank marketingining asosiy vazifalari. Bozor

segmentatsiyasi va uni o'rganish, uning bo'linishi. Bank marketingida bozor segmentatsiyasining o'rni. Bank faoliyatini rivojlantirishda marketingning o'rni.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish

Bank mahsulotlari va xizmatlari haqida tushuncha. Bank mahsulotlari va uning turlari. Bank xizmatlarining tasnifi. Bank xizmatlari bozori va uning turlari, tasnifi. Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorida marketing faoliyati*. Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorida marketing faoliyatining bank ishi natijalariga ta'siri.

Tijorat banking tashkiliy tarkibi va unda marketing xizmatining o'rni

Bankning tashkiliy tarkibi va tuzilishi. Tijorat banki tarkibiy tuzilishida marketing bo'limining o'rni va roli. Bank tashkiliy tarkibida marketing xizmati*. Bankning bozor munosabatlari sub'ektlari iqtisodiy munosabatlarini samarali tashkil qilishda marketing xizmatining o'rni.

Tijorat banklari faoliyatida marketing va nazorat

Marketing tizimida nazorat va uning bank faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni*. Bankning marketing xizmatini nazorat qilishning zarurligi va uning asosiy yo'nalishlari. Bank marketingida nazoratning samarasini ta'minlash yo'llari. Bank faoliyatida nazorat bosqichlari. Nazoratning vazifalari.

Tijorat banklari faoliyatida reklamaning o'rni

Bank faoliyatida reklamaning o'rni va turlari*. Bank faoliyatida reklama turlari. Bank xizmatlari bo'yicha reklama. Bank operatsiyalari bo'yicha reklama. Bankka bo'lgan ishonchni oshirishda reklamaning o'rni. Bank xizmatlarini takomillashtirishda reklamaning ahamiyati.

Referat mavzulari

1. Bank menejmenti va uning zarurati.
2. O'zbekiston Respublikasida bank menejmentini tashkil qilish va boshqaruv fani sifatida takomillashtirishning zarurati.
3. Bank menejmentining maqsadi va boshqaruv vazifalari.
4. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi va ikki pog'onali bank tizimi.
5. Banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning menejmentga ta'siri.

6. O'zbekistonda tijorat banklarining tashkil topishi.
7. Tijorat banki faoliyatini boshqarish.
8. Bank marketingining mohiyati va zarurati.
9. Bank marketingining maqsadlari.
10. Bank marketingining o'ziga xos xususiyatlari va uni rivojlantirish istiqbollari.
11. Bank marketingining asosiy vazifalari, tamoyillari va funktsiyalari.
12. Banklarning iqtisodiyotni rivojlanishdagi roli.
13. Bank mahsulotlari va ularning turlari.
14. Bank xizmatlarining turlari.
15. Bank mahsulotlari va moliya bozorlarida marketingning ahamiyati.
16. Bank mahsulotlari va ularning tahlili.
17. Bank mahsulotlariga talab va ularni shakllantirish omillari.
18. Bank mijozlarining tarkibi va ularga tavsif.
19. Banklararo raqobat kurash sharoitida banklarga mijozlarni jalb qilish va ularni saqlash muammosi.
20. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank mijozlari bozorida o'z mavqeiga ega bo'lish yo'llari va muammolari.
21. Bankning tashkiliy tarkibi va tuzilishi.
22. Marketing xizmatini nazorat bosqichlari.
23. Nazoratning vazifalari.
24. Bank xizmatlarini takomillashtirishda reklama va uning o'rni.
25. Bank faoliyatida reklamanning o'rni va turlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Internet saytlari: WWW.bizbook.ru, WWW.chtivo.ru.

Audeo-video jihozlar: mavzuga bag'ishlangan videokassetalar.

Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:

- Tijorat banklari faoliyatini boshqarish mavzusi bo'yicha 4ta slayd;
- Bank mahsulotlari va xizmatlari bozorini o'rganish mavzusi bo'yicha 2 ta slayd;
- Tijorat bankining mijozlari bozori mavzusi bo'yicha 4ta slayd;

- Tijorat banklari xizmatlarini takomillashtirish va reklama mavzusi bo'yicha 4ta slayd.

5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarni o'zlashtirishlarni baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- Joriy baholash (JB) – 35%;
- Oraliq baholash (OB) – 35%;
- Yakuniy baholash (YaB) – 30%.

JB va OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB o'quv rejasiga ko'ra o'tkaziladi.

Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi.

Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizdan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100% - "a'lo" – 46,4-54,0%;
- 71-85% - "yaxshi" – 38,3-45,9%;
- 55-70% - "qoniqarli" – 29,7-37,8%.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining moliya qonunlari. Toshkent. №5. 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2000yil 21 mart.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari 1995 y 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha T.: Adolat, 2000.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 yanvardagi 24-sonli "Bank tizimini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent - 2000.
7. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. -T.: O'zbekiston, 2000.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank nazorati bo'yicha me'yoriy hujjatlari. 1998-2002.
9. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida pul muomalasini tashkil qilish. №6-yo'riqnomasi. 1998.
10. O'zbekiston Respublikasi monetar siyosati asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
11. Poryadok vidachi kommercheskimi bankami sredstv na zarabotnuyu platu TsB RU (za sootvetstvuyushchiy god).
12. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
14. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
15. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi O'quv qo'llanma. -T.: 2000.
16. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar O'quv qo'llanma. -T.: 2000.
17. Anikin V.M. Investitsionniy analiz: Ucheb. prakt. Posobie - M.: Delo, 2000.
18. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Uchyob. Posobie dlya VUZov Pod red. Prof. A.N. Tovasheva, N. Yunitidana, 2001.
19. Balabanov I.T. Risk-menejment. -M.: 1996.
20. Banki i bankovskoe delo / Pod. Red. I.T. Balabanova - SPb.: Piter, 2001.
21. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika -M.: PRIOR, 2000.
22. Basovskiy L.E. Marketing: Kurs lektzii -M.: Infra-M, 2000.
23. Bagiyan M.B. Bankovskaya pereniska Depozitariy. Uchebnoe posobie -M.: Yurist, 1999.
24. Bankovskoe delo: strategicheskoe rukovodstvo. -M.: AO Kolsalbankir, 1998.
25. Blegnov A.O., Vasilevskaya O.V. Iskustvo upravleniya personalom: Ucheb. Posobie dlya ekonomicheskix kolledjey i vuzov. - M.: GELAN, 2001.
26. B.P. Ivchenko, L.A. Martinshchenko, M.E. Tabuxov Upravlenie v ekonomicheskix na sotsialnix sistemax. Sistemniy analiz. Prinyatie resheniy v usloviyax neopredelyonnosti. - SPb.: Nordmed-Izdat, 2001.
27. Varyash I.Yu. Bankovskaya sotsiologiya: Ekspertnie otsenki v bankovskom dele - SPb.: Alfa, 1999y.

28. Vershigora E.E. Menedjment: Ucheb.Posobie 2-s izd.pererav i dop. -M.: Infra-M, 2000.
29. Vikulin A.Yu. Antimonopolnoe regulirovanie rinka bankovskix uslug. –M., 2001.
30. Velesko E.I., Bikov A.A. Strategicheskiy menedjment –M., 2001.
31. Velesko E.I., A.A. Bikov Nepravskiy strategicheski menedjment. Delovaya igra. Delta; Posobie. - M.: BGEU, 2001.
32. Vikulin A.Yu. Antimonopolnoe regulirovanie rinka bankovskix uslug: Uchebno-prakticheskoe posobie / Ot v red. G.A. Tosunyan –M.: Izdatelstvo BEK, 2001.
33. Dengi, kredit, banki. Tsennie bumagi. Praktikum: Ucheb. posobie dlya vuzov – Pod red. E.F. Jukova. -M.: YuNITI–DANA, 2001.
34. Egorov E.V. Romanov A.V Ramanova V.A. Marketing bankovskiy uslug. Ucheb. Posobie Red V.A. Romanova. –M.: TEIS, 1999.
35. Jukov E.F. Banki i bankovskie operatsii. –M.: 1997.
36. Innovatsionniy menedjment. Ogolevoy L.N. -M.: 2002.
37. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm sovremennix usloviyax. Monografiya. - T.: TGEU, 2000.
38. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel-iyun, 2001.
39. Ilyasov S.M. Ustoychivost bankovskoy sistemi: mexanizmi upravleniya, regionalnie osobennosti: Ucheb. posobie –M.: YuNITI – DANA, 2001.
40. Innovatsionniy menedjment: Ucheb. posobie / pod red. Prof. M.N. Ogolevoy –M.: INFRA–M, 2001.
41. Kiduell D.S., Peterson R.L. Beskuell. Finansovie instituti, rinki i dengi. - SPb.: Piter, 2000.
42. Kuzin B.V., Yurev, G. Shaxdinarov Metodi i modeli upravleniya firmoy. - SPb: Piter, 2001.
43. Kempbell R., Makkonell K. Ekonomiks. -M., 1997.
44. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. - M.: Finansi i statistika, 2001.
45. Kupchinskiy V.A., Ulinich A.S. Sistema upravleniya resursami banka. - M.: Ekzamen, 2000.
46. Kreynina M.N. Finansovi menedjment. Zadachi, delovie situatsii i testi. –M.: Delo i servis, 1999.
47. Krutik A.B. Xaykin M.M. Osnovi finansovoy – deyatelnosti predpriyatiya: Ucheb. Posobie 2-s izd prerab i dop. –SPb.: Biznes-press,1999.
48. Larionova I.V. Reorganizatsiya kommercheskix bankov. -M., 2000.
49. Lavrushin I.O. Bankovskoe delo. -M., 2000.

50. Larinova M.V. Reorganizatsiya kommercheskix bankov. -M.: Finansi i statistika, 2000.
51. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida bank sistemasi -T., 1996.
52. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks: Printsipi, problemi i politika. V 2 t. Per. s angl. -M., 1992.
53. Markova V.D. strategicheskiy menedjment: Kurs lektsii –M., Infra-M, 1999.
54. Maylo O. Frank Kak ubedit sobesednika za 30 sekund. –M.: Dovgan, 1998.
55. Osnovi predprinimatelskoy deyatelnosti: ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. posobie. Pod. red V.M. Vlasovoy. –M.: Finansi i statistika, 1999.
56. Ovchinnikov O.G. Igri na rinke valyutnix Fyugersov, optimizatsiya prinyatix resheniy. –M.: INFRA-M, 1995.
57. Pavlova L.N. Finansoviy menedjment. -M., 2001.
58. Parfenov K.G. Bankovskiy plan schetov i pravila vedeniya buxgalterskogo ucheta. -M., 2001.
59. Ross Kador Upravlenie svobodnimi resursami banka -M., 1996.
60. Rinok tsennix bumag. Uchebnik / Pod red. V.A. Galanova, A.I. Basova –2-e izdanie pererab. i dop. -M.: Finansi i statistika, 2001.
61. Raximova A.A., Bozorov Sh.T. Bank huquqi: O'zbekiston Respublikasi bank tizimi xodimlari va oliy o'quv yurtlari talbalari uchun amaliy va o'quv qo'llanma. Toshkent davlat yuridik instituti - 2000.
62. Rodjer Muers. Effektivnoe upravlenie/ Per. s ang. Seriya Marketing i menedjment v Rossii i zarubejom. – M.: Fipress, 1998.
63. Savchuk V.P., Primekko S.I., Velichko E.G. Analiz azborka investitsionnix proektov: Ucheb. posobie. –Kiev: Elga, 1999.
64. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalom –M.: Perspektiva, 1998.
65. Tavasiev A.M. Rebelskiy A.M. Konkurentsia v bankovskom sektora Rossii. Ucheb-posobie dlya vuzov Pod. red A.M. Tovasieva. –M.: YuNITI-DANA, 2001.
66. Ekonomicheskoy analiz: situatsii, testi: primeri, zadach, vibor optimalnix resheniy. Bakanova i A.D. Shermatova –M.: Finansi i statistika, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnaya otnosheniya jurnalining 2001-2002 yillardagi sonlari.
2. "Bozor, pul va kredit" jurnalining 2001-2002 yillardagi sonlari.
3. "Bank axborotnomasi" gazetasining 2002 yildagi sonlari.
4. "Dengi i kredit" jurnalining 2001-2002 yillardagi sonlari.

5. Tosunyan T.A. Vikushin A.Yu. Dengi i vlast. Teoriya razdeleniya vlastey i prolemi bankovskoy sistemi –3-e izd. Pererab idop. –M.: Delo, 2000.
6. Finansovaya ekonomika firmi: Ucheb. posobie / SD Ilenkova N.D., A.V. Chetvertikova i dr. pod. obshch. red. prof. Ilenkovoy S.D. - M.: Sputnik, 2000.
7. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T., 2001.
8. Sheremet A.D. Finansovi analiz v komercheskom banke. –M.: Finansi i statistika, 2000.
9. Shixov A.K. Straxovanie: Ucheb. posobie dlya vuzov. - M.: YuNITI – DANA, 2001.
10. Evans Dj., Berman B. Marketing. Per. s angl. -M., 2000.